

FARG'ONA- TOSHKENT MAQOM YO'LLARI

Johongir Shamanov

Bajaruvchi: 2-kurs Sirtqi bo'lim talabasi, Toshkent-2022

R. Abdullayev

Ilmiyrahbar: s.f.n. dotsent, Toshkent-2022

(O'zbekiston davlat konservatoriyasi "xalq cholg'ulari" b'limi O'zbek maqom tarixi va nazariyasi fanidan)

KIRISH

O'zbek xalqining musiqa madaniyati ko'p asrlik tarixga ega, ko'pgina sozanda va xonandalar avlodining faoliyatida haror topgan xalq hamda og'zaki an'adagi professional musiqa san'ati bu haqda guvohlik beradi. Moddiy madaniyat yodgorliklarining tasdiqlashicha, bugungi O'zbekiston territoriyasida O'rta Osiyo xalqlari ajdodlari yaratgan qadimgi sivilizasiya mavjud bo'lgan. Arxeologiya ma'lumotlari, tasviriy san'at asarlari (sharq poetik ijodiyoti asarlarida tasvirlangan miniatyuralar), sharqshunoslarining yangi tadqiqotlari va, nihoyat o'rta asrdagi O'rta Osiyo olimlarining musiqiy risolalari tarjimasi o'zbek xalqi musiqa madaniyati taraqqiyotining tarixiy jarayonini tasavvur qilishimizga yordam beradi. O'zbek xalqi ajdodlarining musiqa sarchashmalari O'rta Osiyo territoriyasida yashagan hardosh xalqlar, birinchi navbatda tojik xalqi ijodi bilan mustahkam bog'langan. Bu musiqa asarlarning X-XI asrgacha (ya'ni bu xalqlar aktiv chegaralanganlarigacha) o'zida bir butunlikni ifoda etdi, keyinchalik u o'zbek va tojik musiqa madaniyatlarining shakllanishi uchun mumiy asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotlarning dalolat berishicha, "Aryanim Veyjo" deb ataluvchi Avesto makoni o'zining qahraton sovug'i, jazirama issig'iga ega bo'lgan hamda yerlari tars yoriladigan va ilonlari ko'p o'lka, deb ta'riflanadi. Darhaqiqat, Orol fojeasidan oldingi davrlarda, yuqorida aytilgan keskin kontinental iqlimni, taqir yerlarning xuddi qovun to'riga o'xshab yorilishini, ilonlar uy hayvonlaridek tomu omborlarda yashab yurishini butun mintaqa bo'yicha ko'proq Xorazmda kuzatish mumkin edi. Zardo'shtlik urf-odatlarining qiyofasi biroz o'zgargan holda Xorazm vohasining



bugungi hayot tarzida ham ko'plab kuzatiladi. Ularning hammasi qo'shimcha dalil sifatida ko'zlayotgan fikrimizning isbotiga xizmat etishi mumkin.

"Avesto"ning o'zi aslida ijro vositasida og'zaki tarqalib, faqat keyinchalik kitob shakliga keltirilgan arkonlar majmuasidir. Uning oyatlari va, ayniqsa, madhiyalar qismini tashkil etuvchi - gatlar (bunda so'z oxiridagi "t" harfi juda yumshoq talaffuz etilib, so'nggi davrlarda "goh" shakliga aylanganligi ham ehtimoldan xoli emas: - yakgoh, dugoh, segoh va q.k.) maxsus kuy tizimini tashkil etuvchi ohanglarda yoqimli ovoz bilan tarannum etilgan, deb topilmoqda. "Avesto"da "sruna" deb ataluvchi "sirli eshitish" tushunchasi bo'lgan ekan. Tinglash, quloq orqali vujudga ozuqa olishni zardo'shtiylar muqaddas tuyg'u hisoblaganlar. Dini islomda esa eshituvchilik (same') hissi Allohning sifatlaridan biri!

Qizig'i shundaki, zardo'shtiylar faqat unli tovushlar go'zalligidan emas, balki olov xavri (kuyi), hattoki jimlikni eshitib lazzatlanishga odatlangan ekanlar. Musiqa badiiyat, san'at sifatida tom ma'noda ijro etish va uni eshitishdan boshlanadi. Sozanda kuyning yaratuvchisi bo'lsa, eshituvchi uning qabul qiluvchisidir. Xalqimizda "sozandaga chinakam baho beruvchi, uning ustoz va talabgori - eshituvchi" degan gap bor. Bunda tushunib eshituvchi - xos shinavanda ko'zda tutiladi, albatta.

Mumtoz musihimizning "zamzama", "tarona" (eski shakli "taronik" - "taronacha"*, "buxorcha", "farg'onacha"ga o'xshagan uslub tushunchasi), "suvora" ("asp ros") kabi iboralarining ildizlari ham "Avesto" davrining urf-odatlariga borib taqaladi Zikr etilgan eski musiqiy belgilar, keyingi davrlar mafkurasiga binoan yangicha ma'no va mazmunlar bilan to'ldirilgan, albatta. Qanday bo'lmasin bu ramzlar zamonlar osha bizgacha moziydan yetib kelgan sadolarga aloqador so'zlardir. Buni arxeologiya, etnografiya va boshqa fanlar bergan ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Sinsiz jamiyat sharoitida O'rta Osiyoda musiqa asboblarning asosiy - ya'ni urib chalinadigan, puflab chalinadigan va torli sozlar turlari vujudga kelgan edi.

Urug'chilik jamiyatining yemirilishi va sinfiy jamiyatga o'tish, Baqtriya, Sug'diyona va Xorazmda davlatlarning paydo bo'lishi, axmoniyning harbiy-ma'muriy jihatdan birlashuvlari, Aleksandr Makedonskiy davlati, Grek-baqtriya podsholigiving vujudga kelishi eramizdan oldingi VII asrdan to eramizning IV asrigacha bo'lgan juda katta tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Bu davr epik xarakterli mifologik qahramonlik ustun bo'lgan qadimgi og'zaki musiqali poetik ijodning yuzaga kelishi bilan mashhurdir qahramonlik afsonalari, epik qo'shiqlar O'rta



Osiyo xalqlarining o'z mustaqilliklari uchun olib borgan mardonavor kurashlarining bo'yoqdor tasvirlari bilan to'la.

II. ASOSIY QISM

1. Farg'ona-Toshkent maqomlarining tuzilishi.

Maqomlarning uchinchi yirik yo'nalishi Farg'ona va Toshkent vohalari bilan boqliq. Bu joylarda haror topgan klassik musiqa tizimi umumlashtirilib "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari" deb yuritiladi. 20-30- yillarda ustozlar mazkur tizimga nisbatan "Shashmaqom", "Olti yarim maqom"ga o'xshatib, "Chormaqom" (ya'ni to'rt maqom) atamasini ham qo'llaganlar va uning tarkibida "Bayot", "Dugoh husayniy", "Chorgoh" va "Gulyor-Shahnoz" nomlari bilan yuritiladigan birikmalarni tushunganlar. Farg'ona-Toshkent Chormaqomi, Shashmaqom va Xorazm maqomlaridan farqli o'laroq, qismlari bir-biriga vobasta qilingan turkum shaklida emas, balki umumiy nom ostida keladigan mustaqil kuy yo'llari tarzida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, ular "Dugoh I", "Dugoh II", "Dugoh III" yoki "Bayot I", "Bayot II", "Bayot III" kabi tartib sonlari bilan belgilanadi.

XIX asr oxirlari XX asr boshlarida Toshkent va Farg'ona maqomlarining har biri alohida maktab sifatida ko'rib, mustaqil nomlar bilan yuritilgan. Jumladan, "Toshkent maqomlari", "Turkiston maqomlari" va "Farg'ona maqomlari" kabi tushunchalar iste'molda yurgan. So'nggi paytlarda, aniqroqi I.Rajabovning "Maqomlar masalasiga doir" kitobi paydo bo'lishidan boshlab maqomotni yagona tizim shaklida ko'rsatish maqsadida "Shashmaqom" va "Xorazm maqomlari" bilan bir qatorda "Farqona-Toshkent maqom yo'llari" atamasi istiloxda muqimlasha boshladi.

O'z mohiyatiga ko'ra Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari Shashmaqom, Xorazm maqomlari yoki boshqa bir tizimning ko'chirmasi emas, balki mushtarak maqomot negizida yerlik sozanda va bastakorlar tomonidan ishlangan shaklidir. Parda va usul tamoyillarining o'xshashligi bilan bir qatorda kuy va ashulalarda Farg'ona-Toshkent shevasiga xoslik yaqqol sezilib turadi. qolaversa, bu uslubni to'satdan paydo bo'lgan deyish ham to'g'ri kelmaydi. Zero, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarining asoslari puxta ishlanganligi, sozanda va tinglovchilar ongida chuqur o'rnashib qolganligi mazkur an'analarning ildizlari uzoq zamonlardan kelayotganligidan dalolat beradi. Tarixiy kitoblar, musiqiy risolalar va adabiy tazkiralarda Farg'ona vodiysi hamda Toshkentdan chiqqan yetuk sozandalarning nomlari ko'plab tilga olinadi. Ularning san'ati mahalliy doiradan ancha keng va butun Markaziy Osiyo mintaqasida shuhrat



topgan. Umuman olganda, bu joylarda klassik musiqa rivojlanishi avvaldan baquvvat an'analarga ega.

XVIII asrning oxirlariga kelib, qo'qon xonligi alohida davlat sifatida tarkib topishi bilan Farg'ona va Toshkent vohalari uning asosiy o'zagi sifatida yagona madaniy-ma'muriy doirani tashkil qilgan an'analarning uzluksiz tabiiy ravishda davom etgiris fursati paydo bo'ldi. Ularning shirasi va shevasi imkon qadar saqlandi. Bugungi kunda Xorazm maqom turkumlarining tarkibi tanbur chizig'ida ko'rsatilganidan ancha ixcham. Olti yarim maqom tizimining esa ayrim qismlari, ayniqsa, cholg'u yo'llari afsuski iste'moldan qolmoqaa. Lekin baxtimizga ularning o'ziga xos jarangi va ijodiy qiyofasi yo'qolgan emas.



2. Farg'ona vodiysi hamda Toshkentdan yetishib chiqqan yetuk sozandalar.

Ana shu muhitda she'riyat, musiqa, me'morchilik va boshqa amaliy san'at turlarida o'ziga xos uslub yuzaga kelishi va takomillashuviga zamin hozirlanadi. Mazkur uslubning rivojlanish samaralari musiqa va she'riyat borasida, ayniqsa, sezilarli bo'ldi. Xususan, Muhammad Umarxon (1809-1822 y) va uning o'g'li Muhammad



Alixon (Madalixon) (1822-1842 y) davrlarida qo'qon shoir va sozandalarning dovruqi keng tarqala boshladi.

Muhammad Umarxon yetuk davlat arbobi va zamonasining eng ilg'or vakillaridan bo'lib, uning Amiriy taxallusida yozgan devoni keng e'tibor topgan. Shoirning umr yo'ldoshi Nodira taxallusi bilan ijod etgan Mohlarbегim ham o'zbek she'riyatining yirik namoyandasidir. Amiriy va Nodira - Sharqning eng mumtoz shoirlari qatoridan o'rin oladi. Ularning o'zbek va tojik tillaridagi g'azallari nafaqat Farg'ona-Toshkent vohalari, balki Buxoro, Xorazm hofizlari orasida ham keng tarqalgan. Umarxon va Nodiralarning farzandi Madalixon ham ilmu ma'rifatga, nafis san'atlarga ko'ngil qo'yganganligi ma'lum.

XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida Qo'qonda Fazliy Namangoniy boshchiligida ko'plab saroy shoirlari faoliyat ko'rsatgan. Shu bilan bir qatorda musiqaga ham katta e'tibor berilgan, iqtidorli sozanda va bastakorlar xizmatga jalb etilgan. Eng muhimi, saroy muhitida mumtoz she'riyat hamda musiqa uyg'unligida maqom yo'llarining ilmiy-amaliy asoslari ishlab chiqilgan. Shu jarayonning boshida turgan sozandalarning nomlari ham tarixda saqlanib qolgan. Turli hujjatlarning dalolat berishicha, maqom ilmida Xudoyberdi Ustoz xorazmlik Niyozjon Xo'ja maktabida ta'lim olgan. Bu dalil Xorazm va Qo'qon manbalarida aks ettirilgan. "Xorazm musiqiy tarixchasi"da Xudoyberdi Ustoz Niyozjon Xo'ja shogirdlaridan ta'lim olgan atoqli maqomshunoslar qatorida tilga olinadi. Butun umri davomida Farg'ona va Toshkentning hofizu sozandalari bilan yaqin muloqotda yashagan taniqli shoir va dramaturg Sobir Abdulla tarixning puxta bilimdoni xisoblanadi. U Farg'onada XIX asrning o'rtalarida yuz bergan real voqealardan kelib chiqib, "San'atimiz tarixiga bir nazar" deb nomlanuvchi kichik she'riy doston ham yaratgan. Shunday qilib, yuqoridagi ma'lumotlarni umumlashtirsak, Xudoyberdi ustoz Qo'qonda saroy sozandalarning boshliqi bo'lgan. Uning shogirdi Ashurali avvalo saroyda, badarg'a qilinganidan keyin esa erkin faoliyat yuritgan. Bu esa Farg'ona maqomchiligida ham avvallari saroy va undan tashharidagi ikki xil an'ana barobariga rivojlanib borganligidan dalolat beradi.

Ikkinchi bir muhim nuqta shundan iboratki, XIX asr o'rtalarida Xudoyorxon zamonida san'atga qarshi mudhish voqea yuz bergan. "Elda sho'xlik ko'payib, dini islomga putur yeta boshladi", degan vaj bilan bir qancha mashhur san'atkorlar, jumladan, maqomchilar ham qatl qilingan. Natijada saroyda soz bazmlari man etilib, maqom ustozlari markazdan chetroqda (Marqilon, Isfara, Xo'jand, Toshkent va boshqa joylarda) faoliyat ko'rsatganlar.





O'ZBEKISTON MUMTOZ MUSIQASI

3. Farg'ona-Toshkent mumtoz musiqasining Xorazm, Buxoro Shashmaqomi bilan bog'liq tomonlari .

Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarining kelib chiqishi va tarkibiy xususiyatlari ilmiy jihatdan ham kam o'rganilgan. Ushbu masala yuzasidan I.Rajabovning "Maqomlar masalasiga doir" kitobining maxsus bobi ishonchli ma'lumotlardan hisoblanadi. Unda Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari maqomot tizimida o'z ichki qonun-qoidalari, nizom va belgilari bilan davom etib kelayotqan mustaqil an'ana ekanligi ochib berilgan. Eng muhimi, I.Rajabov tadqiqotida Farg'ona-Toshkent maqomlarining tarixi va amaliy tamoyillaridagi Buxoro Shashmaqomi va Xorazm maqomlaridan farqli jihatlari ko'rsatilgan. Farg'ona-Toshkent maqomlarining tarixiy ildizlariga oid ishonchli yozma manbalarning tanqisligi hamda ijro etilib yurgan kuy va ashulalarning mukammal tanqidiy matnlarining deyarli yo'qligi mavzuni taxlil etishda jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi.

Bu borada eng chigal masalalardan biri - Farg'ona-Toshkent klassik musiqasining mundarijasini tuzishdir. Gap shundaki, bu voqa kuy va ashulalarining faqat ayrim qismigina sharafli maqom otlari bilan yuritiladi. Aksariyati esa ma'muriy kuy va ashulalarga o'xshab jaydari nomlar bilan belgilab ketilgan. Farg'ona-Toshkent yo'llarining belgisi maqom yoki ularning shu'balariga ergashib keladigan qismlarga aynan o'xshaydigan joylari ko'p. Masalan, sozandalar orasida Bayot II nomi bilan yuritiladigan asar aslida Naqshi Bayotdir. Qizig'i shundaki, bu kuyda eski musiqa risolalarida "naqsh" shakliga xos deb ko'rsatilgan xususiyatlar o'z aksini topadi. Boshqacha aytganda, aslida naqsh shunchaki oddiy tarona emas, balki uning o'ziga xos murakkab bir ko'rinishidir. Demak, Farg'ona-Toshkent yo'llari yoki "Chormaqom" deganda Bayot, Dugoh-husayn, Chorghoh, Gulyor-Shahnoz nomlari bilan yuritiladigan mazkur maktab ustozlari suhbatidan qiziqarli fikr - muloqazalar chiqadi.

Fikrimizcha, bularning hammasi o'z navbatida Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarini Buxoro va Xorazmnikiga o'xshab yirik turkumlarga uyg'unlashmasdan, alohida kuy va ashulalar tarzida tarqalishiga sabab bo'lgan. Zebo pari laqabli (ismi Xudoyberdi) sozanda tilga olinishi ham e'taborga loyiq. U Fargona maktabi (Isfara)dan chiqqan zabardast hofiz bo'lgan. Shashmaqomning eng go'zal avjlaridan biri aynan shu nom bilan yuritiladi.

Ma'lumki, so'nggi davrdagi Farg'ona-Toshkent maqomlarining tarixi va ijro dasturlarining eng puxta bilimdonlaridan biri Orifxon Hotamov edi. U ko'plab yetuk maqom ustozlari bilan ijodiy muloqotda bo'lgan. Orifxon Hotamovning dalolat berishicha, oldinlari Farg'ona-Toshkent uslubining o'zi ikki yo'nalishga ajratilgan: biri "maqom yo'llari", ikkinchisi "zikr maqomlari". Boshqacha aytganda, bu oqimlar umumiy Farg'ona-Toshkent maqomlari tizimining dunyoviy hayot hamda diniy marosimlarga bog'liq ikki ko'rinishidir.

Ma'lumki, Turkiston va unga tutashgan Farg'ona vodiysi Yassaviy tariqatining dunyo bo'ylab tarqalishida markaziy doirani tashkil qilgan. Xalq oqzida "Makkada - Muhammad, Turkistonda - Xo'ja Ahmad", degan gap bor. Ahmad Yassaviyning "jahriy" (ochiq baralla aytiladigan) zikrlarida ovoz va ashula vositalariga katta ahamiyat berilgan. Shunga muvofiq zikr marosimlarida maqom toifasidagi mumtoz kuy va ashulalarga ham muqim o'rin ajratilgan. Umuman, maqom yo'llarining diniy mavzular bilan bog'lanishini ikki jihatdan kuzatish mumkin. Birinchisi - maqom doirasidagi kuy va usullarning bevosita zikr marosimlarida ishlatilishi. "Zikr maqomlari" deganda aynan shu tartib ko'zda tutiladi. Ikkinchisi -xonaqodan



tashharida ilohiy mavzulardagi ashulalarni mumtoz kuy yo'llariga solib aytish. Ular xalq orasida "katta ashula" nomi bilan yuritilgan. Yana bir farqi "zikr" ovoz vositasida ifodalanadigan usul asosida, katta ashula esa erkin vaznda ijro etilishi taqozo qilinadi. Shu bilan birga, qat'iy tartib va nizomli maqom yo'lidan farqli o'laroq bu toifa ashulalar "yovvoyi uslub" deb ham aytilgan.

III. Xulosa

O'rta Osiyo xalqlari hayotida tarixiy chegaralanish bosqichi taxminan bizning eramizgacha bo'lgan birinchi ming yillikdan boshlanadi. Bular o'troq dehqonlar (sug'diyalar, baqtriyaliklar, xorazmiylar) hamda ko'chmanchi (saklar, massagetlar va boshqa) qabilalar edi. Ular haqidagi ma'lumotlar Avestoda ham uchraydi. Xalq poetik va musiqa san'atining boshlanishi o'sha davrlarga borib taqaladi. Xalq poetik va musiqa san'ati dastlab sinkretik holatda bo'lgani to'qrisida Avesto kitobi va boshqa qadimgi yozma yodgorliklar, turmushi, ularning urf-odatlarini, to'y-tomoshalarining arxaik elementlari guvohlik beradi. Yuksak salohiyati yunon, rim va xitoy manbalarida ham yakdillik bilan e'tirof etilgan. Ayrim ilmiy harashlarga ko'ra, Xorazm ko'hna zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lmish "Avesto"ning vatani qisoblanadi. Bundan chiqadigan xulosa shuki, Farg'ona-Toshkent klassik musiqasining ildizlari nafaqat Xorazm, balki Buxoro Shashmaqomining an'analari bilan chambarchas boqliq holda rivojlanganligi hamda maqomotning uchta asosiy uslubi ham yagona negizlarga borib taqalishining qo'shimcha dalilidir.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati ko'p asrlik tarixga ega, ko'pgina sozanda va xonandalar avlodining faoliyatida haror topgan xalq hamda og'zaki an'adagi professional musiqa san'ati bu haqda guvohlik beradi. Moddiy madaniyat yodgorliklarining tasdiqlashicha, bugungi O'zbekiston territoriyasida O'rta Osiyo xalqlari ajdodlari yaratgan qadimgi sivilizasiya mavjud bo'lgan. Arxeologiya ma'lumotlari, tasviriy san'at asarlari (sharq poetik ijodiyoti asarlarida tasvirlangan miniatyuralar), sharqshunoslarining yangi tadqiqotlari va, nihoyat o'rta asrdagi O'rta Osiyo olimlarining musiqiy risolalari tarjimai o'zbek xalqi musiqa madaniyati taraqqiyotining tarixiy jarayonini tasavvur qilishimizga yordam beradi.

O'zbek xalqi ajdodlarining musiqa sarchashmalari O'rta Osiyo territoriyasida yashagan hardosh xalqlar, birinchi navbatda tojik xalqi ijodi bilan mustahkam bog'langan. Bu musiqa asarlarning X-XI asrgacha (ya'ni bu xalqlar aktiv



chegaralangunlarigacha) o'zida bir butunlikni ifoda etdi, keyinchalik u o'zbek va tojik musiqa madaniyatlarining shakllanishi uchun mumiy asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotlarning dalolat berishicha, "Aryanim Veyjo" deb ataluvchi Avesto makoni o'zining qahraton sovug'i, jazirama issig'iga ega bo'lgan hamda yerlari tars yoriladigan va ilonlari ko'p o'lka, deb ta'riflanadi. Darhaqiqat, Orol fojeasidan oldingi davrlarda, yuqorida aytilgan keskin kontinental iqlimni, taqir yerlarning xuddi qovun to'riga o'xshab yorilishini, ilonlar uy hayvonlaridek tomu omborlarda yashab yurishini butun mintaqa bo'yicha ko'proq Xorazmda kuzatish mumkin edi. Zardo'shtlik urf-odatlarining qiyofasi biroz o'zgargan holda Xorazm vohasining bugungi hayot tarzida ham ko'plab kuzatiladi. Ularning hammasi qo'shimcha dalil sifatida ko'zlayotgan fikrimizning isbotiga xizmat etishi mumkin.

. "Avesto"ning o'zi aslida ijro vositasida og'zaki tarqalib, faqat keyinchalik kitob shakliga keltirilgan arkonlar majmuasidir. Uning oyatlari va, ayniqsa, madhiyalar qismini tashkil etuvchi - gatlar (bunda so'z oxiridagi "t" harfi juda yumshoq talaffuz etilib, so'nggi davrlarda "goh" shakliga aylanganligi ham ehtimoldan xoli emas: - yakgoh, dugoh, segoh va q.k.) maxsus kuy tizimini tashkil etuvchi ohanglarda yoqimli ovoz bilan tarannum etilgan, deb topilmoqda. "Avesto"da "sruna" deb ataluvchi "sirli eshitish" tushunchasi bo'lgan ekan. Tinglash, quloq orqali vujudga ozuqa olishni zardo'shtiylar muqaddas tuyg'u hisoblaganlar. Dini islomda esa eshituvchilik (same') hissi Allohning sifatlaridan biri! Qizig'i shundaki, zardo'shtiylar faqat unli tovushlar go'zalligidan emas, balki olov xavri (kuyi), hattoki jimlikni eshitib lazzatlanishga odatlangan ekanlar. Musiqa badiiyat, san'at sifatida tom ma'noda ijro etish va uni eshitishdan boshlanadi. Sozanda kuyning yaratuvchisi bo'lsa, eshituvchi uning qabul qiluvchisidir. Xalqimizda "sozandaga chinakam baho beruvchi, uning ustoz va talabgori - eshituvchi" degan gap bor. Bunda tushunib eshituvchi - xos shinavanda ko'zda tutiladi, albatta.

Mumtoz musihimizning "zamzama", "taron" (eski shakli "taronik" - "taronacha*", "buxorcha", "farg'onacha"ga o'xshagan uslub tushunchasi), "suvora" ("asp ros") kabi iboralarining ildizlari ham "Avesto" davrining urf-odatlariga borib taqaladi Zikr etilgan eski musiqiy belgilar, keyingi davrlar mafkurasiga binoan yangicha ma'no va mazmunlar bilan to'ldirilgan, albatta. Qanday bo'lmasin bu ramzlar zamonlar osha bizgacha moziydan yetib kelgan sadolarga aloqador so'zlardir. Buni arxeologiya, etnografiya va boshqa fanlar bergan ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Siftsiz jamiyat sharoitida O'rta Osiyoda musiqa asboblarining asosiy - ya'ni urib chalinadigan, puflab chalinadigan va torli sozlar turlari vujudga kelgan



edi. Urug'chilik jamiyatining yemirilishi va sinfiy jamiyatga o'tish, Baqtriya, Sug'diyona va Xorazmda davlatlarning paydo bo'lishi, axmoniymlarning harbiy-ma'muriy jihatdan birlashuvlari, Aleksandr Makedonskiy davlati, Grek-baqtriya podsholigiving vujudga kelishi eramizdan oldingi VII asrdan to eramizning asrigacha bo'lgan juda katta tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Bu davr epik xarakterli mifologik qahramonlik ustun bo'lgan qadimgi og'zaki musiqali poetik ijodning yuzaga kelishi bilan mashhurdir qahramonlik afsonalari, epik qo'shiqlar O'rta Osiyo xalqlarining o'z mustaqilliklari uchun olib borgan mardonavor kurashlarining bo'yoqdor tasvirlari bilan to'la.

IV. Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.T.E.Solomonova. O'zbek musiqasi tarixi T.1981.y.
- 2.I.Rajabov Maqomlar masalasiga doir T.1963.y.
- 3.O.Matyaqubov Og'zaki an'anadagi professional musiqaga kirish T.1983.y
- 4.O.Matyaqubov Maqomot T.2004.y.